



**MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA VATANPARVARLIK
TUYG'ULARINING UYG'UNLIGI**

Meyliboyev G'olib Botir o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

“Madaniyat va san'at sohasi menejmenti” ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz o'zbek xalqining sevimli shoiri, otashqalb farzandi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning hayot faoliyati, ijodi hamda bizlar uchun yod bo'lib ketgan samimiy va sodda she'rlaridagi vatanparvarlik tuyg'ularining uyg'unligi haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: Vatanparvarlik, ona yurt, jamiyat, taraqqiyot, shoir, his-tuyg'u, kelajak, kitob, ma'naviy ong, milliy yuksalish.

Annotation: In this article, we will reflect on the life activity, creativity of Muhammad Yusuf, the favorite poet of the Uzbek people, the son of a firebrand, the national poet of Uzbekistan, and the harmony of patriotic feelings in his sincere and simple poems that have become a memory for us. .

Keywords: Patriotism, motherland, society, development, poet, emotion, future, book, spiritual consciousness, national rise.

Vatanparvarlik – bu kishilarning o'z ona yurtiga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, [xalq](#), [millatlar](#) uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z [vatanlari](#) taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar inson, o'zi tug'ilib o'sgan joyni ko'z qorachig'idek asrab-avaylaydi, uning rivojlanishi uchun harakat qiladi, vatanini hech narsaga almashmaydi, vatan madhini doimo birinchi o'ringa qo'yadi, vatan uchun hattoki jonini ham fido qiladi. Bunday vatanparvar insonlar bizning yurtimizda juda ko'p. Shuning uchun ham biz ushbu maqolamizda, vatanparvar inson, otashqalb shoir, sodda, samimiy va kamtorona she'rlari bilan xalqimizning ko'nglidan joy olgan, xalqimizning sevimli farzandi, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf haqida gaplashamiz.





Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, Respublika Rus tili va adabiyoti institutida o‘qib, uni 1978-yilda bitirdi. Shoir 1978-1980 yillarda Kitobsevarlar respublika jamiyatida, 1980-1986 yillarda “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986-1992 yillarda G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyatida, 1992-1995 yillarda “O‘zbekiston ovozi” gazetasida, O‘zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995-1996 yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o‘qidi. 1997 yildan boshlab O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o‘rinbosari lavozimida ishladi. Hammamizga ma‘lumki, Muhammad Yusuf O‘zbekistondagi eng yosh xalq shoiri (1998-yil) hisoblanadi. Uning millat va yurt istiqloli sharafiga bitgan go‘zal she‘rlari o‘zining samimiyligi, soddaligi, badiiy mukammalligi bilan millionlar qalbida aks sado berdi. Shoirning “Vatanim”, “Xalq bo‘l, elim”, “Dunyo”, “Inshoolloh”, “O‘zbekmomo”, “Iqror”, “Tilak” singari o‘nlab she‘rlari chinakam she‘riyat yurtini qanday kuylamog‘i lozimligini isbotlagan asarlar bo‘lib qoldi.

Muhammad Yusufning vatanparvarlik tuyg‘ulari shoirning she‘riyatida o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. U vatanini sevishni, uni himoya qilishni, o‘z xalqining boy tarixini va madaniyatini yuksaltirishni she‘riy obrazlar orqali keng yoritadi. She‘rlarda milliy mustaqillik, xalqning erkinligi, vatanni himoya qilish va uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish kabi mavzularni tilga oladi.

Shoirimizning ko‘plab she‘rlarida vatanparvarlik ruhi mavj urib turadi. Misol uchun hammamiz yoddan biladigan, musiqasini eshitsak jo‘r bo‘lib kuylaydigan “Vatanim” she‘rini olsak.

Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim xoqon,
O‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim,
Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan





Ulug‘imsan, Vatanim...

Shoirimizning ushbu she‘ridagi, bu misralarda o‘zbek xalqining necha ming yilliki tarixi, o‘tmishi aytib o‘tilgan. O‘zim xoqon, O‘zim sulton, degan so‘zlar bizga Buxoro xonligi, Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligi eslatadi, albatta. XVI-XIX asrlardagi ushbu davlatlarning yuksalishi, rivojlanishi, adabiyoti, san‘at va madaniyati, olim-u fuzalolari hamda davlatlarning o‘zaro a‘loqalarini, yuqoridagi jumlar orqali anglab yetishimiz mumkin.

Shodon kunim gul otgan sen,
Chechak otgan izimga,
Nolon kunim yupatgan sen,
Yuzing bosib yuzimga.
Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdardu hamxonam deymi,
Oftobdan ham o‘zing mehri —
Ilig‘imsan, Vatanim.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she‘ridagi bu misrasida esa mutlaqo boshqa hodisaga duch kelamiz. Shoirning ona yurtdan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq ekanligini, u bir aka bo‘lib, bir o‘g‘il bo‘lib bu mehrga javob berishini hohlaydi. Yaxshi va yomon kunida ham shu vatanining quyoshi uning uchun kuch-qudrat, mehr ekanligi desak yangilishmagan bo‘lamiz.

Sen Mashrabsan,
Xalqda tumor,
Balxda dorga osilgan,
Navoiysan, shoh yonida
Faqirni duo qilgan.
Yassaviysan, meniki deb,
Ko‘ringan da‘vo qilgan,





Ming bir yog‘i ochilmagan

Qo‘rig‘imsan, Vatanim.

Bu misrada nomlari marjondek terilgan buyuk bobolarimizni bilmagan yurtdoshlarimiz bo‘lmasa kerak. Chunki bu shaxslar vatani va xalqining taqdiri hamda rivojlanishi uchun, hamma narsaga tayyor zotlar edi. Shuning uchun yuqoridagi misralarning har biriga to‘xtalib o‘tsak! Misol uchun, “Sen Mashrabsan, Xalqda tumor, Balxda dorga osilgan”, Mashrab bobomiz o‘z vatanida haqgo‘y, isyonkor shoir, qalandar sifatida mashhur bo‘lgan. Mashrabning biror shahar-qishloqqa kelishi izziz o‘tmagan, ma‘lum shov-shuvlarga sabab bo‘lgan. Mashrab turli marakalarda, xalq orasida mutaassib ruhoniylarni, zulmkor hokim-amaldorlarni achchiq kinoya va nafrat bilan tanqid qilgan. Oddiy xalq samimiyat va xursandchilik bilan, hokim, amaldorlar, riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushman ko‘zi bilan sovuq qarshi olgan. Shoir qo‘nimsiz hayotining so‘nggi manzili Balxda ham hokim tabaqa va mutaassib shayx-mullalar Mashrabni jisman yo‘qotish payiga tushadilar. Shu teskarichi guruhlarning rasmiy fatvosi va [Mahmudbiy](#) qatag‘onning hukmi bilan Balxda dorga osiladi.

Yassaviy bobomizning “Devoni hikmat” nomli asarlarida ilohiy ishq va oshiqlik, ma‘rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish, ona yurtni doimo e‘zozlash, adolatli hayot kechirish, vijdonni pok saqlash tushunchalari nihoyatda samimiy va ta‘sirli ohanglarda yoritib berilgan.

“Navoiysan, shoh yonida Faqirni duo qilgan”. Haqiqatdan ham hazrat Navoiy Husayn Boyqaro davlatining bosh vaziri bo‘lgan paytda xalqning ahvoli juda yaxshilangan, xalqqa qo‘lidan kelgunlaricha yordam berib, tinchlikni doimiy hukm surishi uchun harakat qilganlar.

Muhammad Yusufning “Iqror” she‘ridagi 3-misrani olaylik. Ya‘ni:

Ko‘rdim suluvlarning eng faranglarin,

Yo xudbinman yo bir sodda kasman men:

Parijning eng go‘zal restoranlarin,

Bitta tandiringga alishmasman men.

Ushbu misrada shoirning ya‘na bir bor yurtini hech narsaga alishmasligini guvohi bo‘lamiz. Chunki, go‘zal yurtlarni, dunyo tanigan restoranlarni bitta tandirimga alishmayman deb, shoirimiz baralla aytmoqda. Shoirimizdagi vatanparlik tuyg‘usi juda





kuchlidir. Bu tuyg‘uni Muhammad Yusufning “O‘zbekiston” she‘ri orqali ham bilishimiz mumkin.

Qalqoningmiz, qasd qilsa kim gar joningga,

Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga.

Gulday o‘pib asragaymiz ostonangni

Yovlar yaqin yo‘l olmagay qo‘rg‘oningga.

Shoirimiz o‘zbek xalqining har bir o‘g‘loni yurt uchun, vatanning ravnaqi uchun hamma narsaga tayyor ekanligini, har biri alpomishdek mard-jasurligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, yurtning o‘g‘lon va yigitlari, millatning tayanchi, himoyachisi hisoblanadi. Vatanni chin dildan sevadigan, ardoqlaydigan, yuragida Vatanga bo‘lgan muhabbat hissi jo‘sh urib turadigan yigitlarga Vatanning haqiqiy himoyachisi degan sharafli nomga munosibdir. Ular o‘z yurti oldidagi yigitlik burchini o‘tash uchun sidqidildan xizmat qiladilar, vatanning bir qarich tuprog‘ini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, yurtning bayrog‘ini ko‘klarda hilpiratishadi.

Xulosa qilib, aytadigan bo‘lsak Muhammad Yusufning har bir she‘ri va asarlari biz uchun juda katta tajriba maktabidir. Muhammad Yusufning she‘rlari vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan to‘la. Uning asarlarida vatanni sevish, xalqni qadrlash va milliy o‘zlikni anglash kabi mavzular ustuvor o‘rin tutadi. She‘rlarda bu tuyg‘ular uyg‘unlikda birlashib, o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini hurmat qilishga, mustaqillik va erkinlikni qadrlashga chaqiradi. Chunki shoirimizning har bir misrasida yurt ravnaqi, o‘tmishi, tarixi, xalqlarning do‘stligi, odamlar orasidagi mehr-muhabbati, yoshlarimizning ilmga, kelajakka intilishi aks etgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil may oyida Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomidagi maktab-internatga tashriflari chog‘ida, ijod maktabidagi yoshlar bilan muloqotlarida, davlatimiz rahbari “Muhammad Yusuf xalqimiz sevgan samimiy shoir, vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari bo‘lishingiz kerak. Buning uchun bir daqiqayam vaqtlaringizni bexuda o‘tkazmay, ko‘proq o‘qib, tarixga uyg‘oq boqib kamolga yetishlaringiz zarur. Eng katta boylik – ma’naviy boylikdir” – deb ta’kidlaydilar. Biz ham Yangi O‘zbekistonimizning kelajagi va doimiy rivojlanib taraqqiy etishi uchun vatanimizni sevib, har doim ilm egallab, yangilik sari olg‘a intilishimiz zarur.

O, ota makonim,

Onajon o‘lkam,

O‘zbekiston, jonim to‘shay soyangga.





Senday mehribon yo‘q,

Seningdek ko‘rkam,

Rimni alishmasman bedapoyangga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S. Olim, S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov. Adabiyot darslik 8-sinf. II-qism. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent. 2014-yil.
2. O‘sha manba. (1-adabiyot).
3. Muhammad Yusuf “Ulugimsan vatanim” she’riy to‘plami. Toshkent. 2000-yil.
4. Muhammad Yusuf “Saylanma” she’riy to‘plami. Toshkent. 2019-yil.
5. Muhammad Yusuf “Ulugimsan vatanim” she’riy tuplami. Toshkent – 2000 y.
6. Muhammad Yusuf “Saylanma” she’riy tuplami. 2014.
7. Muhammad Yusuf “Shoir sevgisi” she’riy tuplami. 2014.
8. Rahimov Erkin. “MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARIDA VATAN TASVIRI”. Oriental renaissance: Innovative, educational natural and social sciences 3.6 (2023): 230-238.
9. Маруфова, З. "ШАРҚОНА ГЎЗАЛЛИК ТАСВИРИДА ЎСИМЛИК НОМЛАРИНИНГ РОЛИ." Экономика и социум 11 (78) (2020): 877-880.
10. Маруфова, Зулфия Набиевна. "КРАСОТА И ЕЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ." КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ФИЛОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. 2021.
11. Маруфова, Зулфия Набиевна. "МУҲАММАД ЮСУФ ШЕЪРЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛГАН ФИТОМОРФИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Science and innovation 3.Special Issue 36 (2024): 315-319.
12. Marufova, Zulfiya. "O‘zbek mumtoz she’riyatida zoonimlar vositasida go‘zallik ifodalash." Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.3 (2021): 307-311.





13. Marufova, Zulfiya. "LINGUISTIC AND CULTURAL MEANS OF REALIZING THE CONCEPT OF "BEAUTY" IN CLASSIC ARTISTIC TEXTS." *International Journal Of Literature And Languages* 2.10 (2022): 05-13.
14. Samiyev, Baxtiyor. "INNOVATIVE DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.5 (2024): 522-525.
15. Baxtiyor, Samiyev. "THEORETICAL ANALYSIS OF THE CURRENT ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 11.05 (2024).
16. Samiyev, Baxtiyor Norbobo O'G'Li, and Mo'Minmirzo Xolmo'Minov. "YUSUF XOS HOJIBNING BOSHQARUVGA DOIR QARASHLARI VA AXLOQIY O 'GITLARI." *Oriental Art and Culture* 4.2 (2023): 359-364.
17. Alimasov, Viktor, and Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li. "MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR VA MUTAXASSISLAR MIGRATSIYASI." *Journal of universal science research* 3.3 (2025): 31-35.
18. ugli Samiyev, Bakhtiyar Norbobo. "YUSUF XOS HOJIBNING BOSHQARUVGA DOIR QARASHLARI VA AXLOQIY O 'GITLARI."

